



OZARBAYJONDA KINO SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI (1890-1990 YILLAR KESIMIDA)

Jalolova Gulnoz Mannob qizi

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
tayanch doktoranti

jalolova.gulnoz97@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4911-8723>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8037496>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08-June 2023 yil

Ma'qullandi: 10-June 2023 yil

Nashr qilindi: 14-June 2023 yil

KEY WORDS

Ozarbayjon kino san'ati, rejissor, operator, rassom, dramaturgiya, hujjatli film, badiiy film.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xorijiy davlat Ozarbayjon Respublikasida bo'lib o'tgan qisqa muddatli stajirovka natijalari bayon qilinib, bunda 1890-yildan 1990-yilgacha bo'lgan davrda suratga olingan badiiy filmlar, shuningdek davr kino san'atining rivojlanish bosqichlari va bunda yuzga kelgan muammolari ilmiy tahlil etilgan.

Ozarbayjonda kino san'ati paydo bo'lganidan beri bir qancha yutuqlarga erishgan, jumladan bir qancha nufuzli xalqaro festivallarda bir necha nominatsiyalar g'olibi bo'lgan, shuningdek, xalqaro nufuzli mukofotlarni qo'lga kiritgan, Rustam Ibragimovning "Quyoshda kuygan" filmi "Oskar" mukofoti sovrindori bo'lgani buning yaqqol dalilidir. Ozarbayjonda 1 asrdan oshiqroq davrda 240 ga yaqin to'liq metrajli va 50 dan ortiq qisqa metrajli badiiy filmlar, shuningdek, 1200 dan ortiq hujjatli va yuzga yaqin animatsion filmlar va boshqalar suratga olingan.

Ozarbayjonda kino san'ati 1898-yil 2-avgust Aleksandr Mishon tomonidan suratga olingan xronika syujetlaridan boshlanadi. Keyinchalik 1915-yillarda aka-uka Pironelar tomonidan ular ochgan savdo uylari orqali ilk "Neft va millionlar saltanatida" romani asosida shu nomdagi ilk badiiy film suratga olinadi. Bir yildan so'ng esa Uzeyir Hojiboyev tomonidan "Arshin mol oluvchi" operettasi asosida Ozarbayjonning ilk kinokomediyasi suratga olingan.

Mahalliy badiiy filmlarni suratga olish jarayonlarining jadallashishi o'z-o'zidan kino idorasi tashkil etilishiga sabab bo'ldi va 1923-yilda Ozarbayjon Foto-kino Idorasi ta'sis etildi. AFKI 1924-yilda ikki qismli "Qiz qal'asi afsonasi" nomli badiiy filmi ekranlarga chiqardi. Ushbu film sharq ekzotikasiga yo'g'rilgan, etnografik jihatdan qiziq film bo'ldi. Bir yildan so'ng ushbu idora qoshida milliy kadrlarni tayyorlash bo'yicha studiya tashkil etildi, bir qancha mashhur rejissorlar, jumladan Nikolay Shengelaya, Mixail Chiaurelilar, operatorlardan Dmitriy Feldman, Leonid Kosmatov, Yevgeni Shneyderlar studiyaga taklif etildi.

AFKI keyinchalik "Azdavlatkino" (1926-1930), "Azerkino" (1930-1933), "Azfilm" (1933), "Azdavlat sanoati" (1934), "Azerfilm" (1935-1940), "Boku kinostudiyasi" (1941-1959) kabi nomlarda faoliyat yuritdi, 1961-yildan J. Jabborli nomidagi "Ozarbayjonfilm" kinostudiyasi deb nomlandi.¹

1. „AZƏRBAYCANDA KİNO SƏNƏTİNİN YARANMA TARİXİ. SƏSSİZ DÖVR (1920-1935)“. www.azerbaijan.az.

1930-1940-yillarda Ozarbayjon kinematografiyasida Sayfulla Badalov, Vladimir Yeremeyev, Alaskar Alakbarov va boshqalari faoliyat ko'rsata boshladilar, zamonaviy hayotdan olingan, maishiy hayot badiiy shaklda tasvirlangan, shuningdek, tarixiy-inqilobiy mavzularda filmlar suratga olinardi: "Latif", "Ismat", "Olmos" va "Yangi gorizont", "Bokuliklar", "Viloyatliklar" kabi filmlar suratga olinib badiiy jihatdan yutuqlarga erishilgan filmlar qatoridan joy oldi.

1940-yillarda butun Sovet ittifoqi davlatlarida kuzatilganidek ikkinchi jahon urushiga va undagi qahrmonlarga bag'ishlangan, oddiy xalqni yagona g'oya atrofida birlashtirilib urushga birgalikda qarshi chiqishga undaydigan, vatanparvarlik ruhidagi hujjatli filmlar suratga olindi. Bunda Ozarbayjon hujjatli kinosining bir guruh kino rejissorlari va operatorlari jang maydoniga borib, askarlarning qahramonliklarini suratga oldi. Jumladan, "Vatan yo'lida", "Qayg'u", "Maktubga javob", "Abadiy o'tlar diyori", "Sovet Ozarbayjoni" va "Arazning narigi tomonida" shular jumlasidandir.


1940-yillar oxiri — 1950-yillar boshlarida Boku kinostudiyasining asosiy e'tibori badiiy-hujjatli va publitsistik filmlarni suratga olishga yo'naltirildi, bu davrda faqat "Fatalixon" va "Boku chiroqlari" badiiy filmlari suratga olindi.

1950-yillardan Ozarbayjon filmi yangi bosqichga ko'tarildi va aynan shu davrdan boshlab Umumittifoq Davlat Kinematografiya Institutida ta'lim olgan mahalliy rejissor, operator va rassom kadrlar yetishib chiqdilar. Bu bosqich filmlarini oddiy ishchi va kolxozchilar hayotiga bag'ishlangan filmlar "Qora toshlar", "Soyalar poymol bo'lar", "Uning keng ko'ngli", "Uni kechirish mumkinmi?", "Bizning ko'cha", "Katta tayoq" kabi filmlar yaratildi. Ushbu davrning eng katta yutug'i sifatida 1950-yilda "Sovet Ozarbayjoni" rangli to'liq metrajli hujjatli filmi hisoblanib, film 1951-yilda Kann kinofestivalining maxsus mukofotiga loyiq ko'rildi. O'n yillik oxirida Ozarbayjon filmlarida yangi g'oyadagi filmlar suratga olinib boshladi. Jumladan, "Bir mahallali ikki yigit" filmi Sharq mamlakatlaridan birida xalqning ozodlik va demokratiya yo'lidagi kurashidan hikoya qiladi.

1960-yillarda Ozarbayjonda ham rangli filmlar davri boshlandi. "Go'ro'g'li" badiiy filmi Ozarbayjon katta ekranli rangli kinosining ilk namunasi. Shuningdek ushbu davrda musiqali-komediya janriga oid filmlar olish an'anasi davom ettirilib, hozirgi kunga qadar ma'lum va mashhur bo'lgan "Ahmad qayerda?" (1-ilova), "Arshin mol oluvchi", "Qaynana" filmlari suratga olindi.

1-ilova: "Ahmed qayerda" filmi plakati

60-70 yillar yosh kadrlarning katta guruhi kino olamiga kirib kelga davr bo'ldi, yosh va tajribali kadrlarning birlashuvi, Ozarbayjon filmi professional darajaga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi. Filmlarda milliy o'ziga xoslik, g'oya chuqurligi sezila boshladi. Bu davrda Ozarbayjon badiiy televideniye filmlaridan "Tug'ilgan kun" alohida farqlanadi. "Dantening yubileyi", "Yolg'iz orolni o'zing bilan olib borolmaysan", "O'tgan yilning so'nggi kechasi" va boshqa badiiy filmlar ham Ozarbayjon televideniyesi mahsulotidir. "Uzeyir umri" televideniye



filmi keng arxiv materiallari asosida yaratilgan.

1970-80-yillarda tarixiy-inqilobiy janrdagi bir qator qiziqarli, original filmlar suratga olindi. "Yulduzlar so'nmaydi", "Yetti o'g'il istayman...", "So'nggi o'tish", "Qatir Mammad", "Sevinch buxtasi", "Otlarni egarlang" filmlari shu davrning eng mashhur filmlaridir. O'sha davrda Ozarbayjonfilm kinostudiyasida yilda taxminan 7 badiiy film, 20 hujjatli va ilmiy-ommaviy film ishlab chiqarildi.

1970-yillar oxirida va 1980-yillarda Ozarbayjon kinosida ma'naviy-axloqiy muammolarga e'tibor yanada ortgan. Ushbu davrda filmlari o'zidagi kuchli psixologik g'oyalari bilan chet elliklar e'tiborini o'ziga jalb qildi. Xudbinlik, zolimlikka qarshi chiqadigan va asl insoniylik g'oyalarini ilgari suruvchi filmlar: "Yopiq eshik", "Park", "Boshqa umr", "O'lsam...kechir". O'sha mavzular "Sevaman, deb ayt", "Bizni kechiring", "Kumush furgon", "Shayton ko'z oldida" filmlari suratga olindi.

Keying o'n yillik Ozarbayjonning mustaqillikni qo'lga kiritishi davri bilan bog'liq bo'lib, bu davrda jamiyat oldida yangidan-yangi maqsad va vazifalarni qo'yishga sababchi bo'ldi. Bu davrlarda Ozarbayjon xalqni milliy g'oyaga birlashtiruvchi, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadigan turli janrdagi filmlar suratga olina boshlandi. Bular qatoriga "Ko'rshapalak", "Boshqa vaqt", "Fransuz", "Yapon" va "Yaponiyalik" filmlarini misol qilib keltirish mumkin. 1990-yillarning boshida Vatan sevgisini madh etuvchi Jayhun Mirzayevning "Faryod", Anvar Ablujning "Oq otli yigit", Gulbeniz Azimzodaning "Umid" filmlarini ekran yuzini ko'rdi va bir ovozdan tomoshabinlarning rag'batini qozondi. 1995-yilda ssenariy muallifi Rustam Ibragimbekov "Quyoshda kuygan" filmi uchun eng yaxshi xorijiy film sifatida "Oskar"ni oldi. 1996-yilda esa Husayn Mehdiyevning "Boshqa vaqt" filmi juda ko'p muvaffaqiyatlarga erishgan, jumladan I Xalqaro Madrid kino festivalida ikkita nominatsiya g'olibi bo'ldi: "Eng yaxshi rejissor" va "Eng yaxshi yosh aktrisa", shuningdek 30 dan ortiq kinofestivallarda ishtirok etgan. 1997-yilda rejissor Vagif Mustafoyev va prodyuser Rafiq Quliyev "Hammasi yaxshisi uchun" filmi Oberxaufen IFFda birdaniga to'rtta mukofotga sazovor bo'ldi. 1998-yilda rejissyor Yovar Rzayev tomonidan suratga olingan "Sari kelin" filmi Karlovi Varida Amerika erkinlik mukofoti va "Kinoshok" xalqaro kinofestivalida "Eng yaxshi ssenariy" nominatsiyasiga sazovor bo'lgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Ozarbayjonda kino san'ati qisqa muddat davomida tez rivojlandi, barcha Sovet ittifoqi filmlari singari ovozsiz filmlar, ovozli filmlar va keyinchalik rangli filmlar davrini boshdan kechirdi. Ozarbayjon filmining 100 yillik tarixi davomida bir qancha yetuk mahalliy rejissor, operator va kino rassomlar kamol topdi va jahon miqyosidagi yuqori muvaffaqiyatlarga erishgan badiiy, hujjatli va multiplikatsion filmlar suratga olindi va uning erishgan muvaffaqiyatlari hozirga qadar davom etmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "AZƏRBAYCANDA KİNO SƏNƏTİNİN YARANMA TARİXİ. SƏSSİZ DÖVR (1920-1935)". www.azerbaijan.az.
2. Министерство культуры и туризма Азербайджана. Кино . Зарождение. Этапы развития.
3. Aydin Kazimzade. Celebrating 100 Years in Film, not 80 (англ.), Azerbaijan International (Autumn 1997).
4. Азеркино — рождённое в жанре трагифарса // Kultura.Az
5. Тюркские народы: Энциклопедический справочник / м. — Алматы: ЗАО «Казак

энциклопедиясы», 2004. — С. 31. — 384 с.

6. Fəhəsova Z. «Kamera, motor, çəkirik!» Azərbaycan kinosunun 116 illik tarixi ərzində çox yüksəliş və enişlər olub (azərb.) 5 июня 2020 года.

7. Azərbaycanlı filmi «40-ya qapı» beynəlxalq «qızıl» mükafatını qazanıb. 22 dekabr 2017-ci il.

